

O'zbekiston an'anaviy kulolchiligida terrakota plastikasining shakllanishi va badiiy-estetik xususiyatlari

Shaxzodbek Muzaffar o'g'li Xojimurodov
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida qadimdan shakllanib kelgan an'anaviy kulolchilik san'atida terrakota plastikasining o'rni, uning tarixiy ildizlari, badiiy-estetik xususiyatlari hamda zamonaviy davrda davom etayotgan rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda qadimgi Xorazm vohasida topilgan arxeologik terrakotalar misolida bu san'at turining ijtimoiy-madaniy mohiyati va xalq hayotidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, terrakota haykalchalari va sopol buyumlar orqali xalqning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi hamda san'at didi aks etishi ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, kulolchilik san'atining pedagogik ahamiyati, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik did, ijodkorlik va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston kulolchilik san'ati, terrakota, qadimgi Xorazm madaniyati, arxeologik topilmalar, badiiy plastika, milliy hunarmandchilik, estetik tarbiya, maktabgacha ta'lim, an'anaviy san'at, xalq amaliy ijodi

The formation and artistic and aesthetic properties of terracotta plastic in traditional pottery of Uzbekistan

Shakhzodbek Muzaffar oglu Khojimurodov
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the role of terracotta plastic in the traditional pottery art that has been formed in Uzbekistan since ancient times, its historical roots, artistic and aesthetic properties, and ongoing development processes in the modern era. The study reveals the socio-cultural essence of this art form and its role in the life of the people using the example of archaeological terracottas found in the ancient Khorezm oasis. It also substantiates from a scientific point of view that the worldview, religious beliefs, and artistic taste of the people are reflected through terracotta figurines and ceramic products. The article also highlights the pedagogical significance of the art of pottery, in particular, its role in the formation of aesthetic taste, creativity, and respect for national values in preschool children.

Keywords: Uzbek pottery, terracotta, ancient Khorezm culture, archaeological finds, artistic plastic arts, national crafts, aesthetic education, preschool education, traditional art, folk crafts

XX asrning 30-90-yillari oralig'ida faoliyat olib borgan Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) hamda mustaqillik yillarida turli ilmiy muassasalar tomonidan Quyi Amudaryo havzasining o'ng va so'l sohillarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari O'zbekiston arxeologiya fanida alohida o'rin tutadi. Ushbu izlanishlar vohaning qadimiy tarixini yoritishda beqiyos ahamiyat kasb etib, arxeologik manbalarni tizimli tahlil etish asosida bir qator fundamental ilmiy nashrlar yaratilishiga zamin yaratdi.

Yozma manbalarda Xorazmning qadimgi tarixi haqida ma'lumotlar nisbatan cheklangan bo'lsa-da, arxeologik qazishmalar natijasida qum barhanlari ostidan topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari - osori-atiqalar - ajdodlarimizning ijtimoiy hayoti, xo'jalik tizimi, diniy e'tiqodi va badiiy didi haqida muhim dalillarni taqdim etmoqda. Topilmalar orasida sopol buyumlarning ko'pligi, qadimiy Xorazm aholisi madaniyatida kulolchilik san'atining markaziy o'rinda bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu sopol artefaktlar orasida paxsa devor yuzalariga ishlangan bo'rtma rel'eflar, qolip yordamida yasalgan antropomorf va zoomorf haykalchalar, shuningdek, turli bezakli kulolchilik idishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Arxeologik yodgorliklarda olib borilgan izlanishlar orqali aniqlangan haykaltaroshlik san'ati namunalarini o'rganish, o'z navbatida, o'sha davr aholisi dunyoqarashi, e'tiqodi, kiyinish madaniyati hamda xo'jalik faoliyati xususida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, Yonboshqal'a xarobalarida olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan terrakota haykalchalar orasida bashang kiyingan ayollar tasviri, shuningdek, uzun etik, beldan bog'langan uchburchak yoqali kalta kamzul va "Frigiylar qalpog'i" deb ataluvchi uch shoxli bosh kiyim kiygan erkak figuralari ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa voha hayotida kiyinish uslubi va estetik qarashlarning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

2017-2018-yillarda S. R. Baratov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan mazkur yodgorlikda olib borilgan yangi tadqiqotlar jarayonida aniqlangan ayol terrakota (hozirda Xorazm Ma'mun akademiyasi muzeyida saqlanmoqda) o'z ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu topilma 4-tipdagi qolipda yasalgan, qizil angob bilan ishlov berilgan va nisbatan yaxshi saqlangan haykalcha bo'lib, o'lchami, plastika uslubi hamda shakliy tuzilishi jihatidan Qal'aliqir-2, Ko'zaliqir, Katta Qirqqizqal'a va Qo'yqirilganqal'a yodgorliklaridan topilgan terrakotalarga o'xshashdir.

Haykalchada tasvirlangan ayol qiyofasi tik turgan holda berilgan bo'lib, o'ng qo'li tirsakdan bukilgan holda ko'kragiga, chap qo'li esa qorin qismiga qo'yilgan. U yalang'och yoki yengil libosda ifodalangan bo'lib, bu holat ona-xudo kultiga xos

bo'lgan hosildorlik, baraka va ayollik timsoli sifatida talqin qilinadi. Mazkur terrakota nafaqat estetik jihatdan, balki diniy-madaniy qarashlar tizimining mahalliy shaklini yorituvchi muhim ikonografik manba sifatida ham e'tirof etiladi. Tuproqqal'a tumanining "Arka bobo" fermer xo'jaligi hududida, yodgorlik izlari aniq belgilab olinmagan joydan, Xumbuztepa va Qal'aliqir yodgorliklaridan topilgan terrakotalarga tipologik jihatdan aynan o'xshash, biroq badiiy ifodasi bilan farq qiluvchi yangi namunaviy topilma aniqlangan. Mazkur artefakt hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, u o'zining ikonografik va diniy-ramziy mazmuni bilan alohida ilmiy qimmatga ega.

Topilma qizil angob bilan ishlov berilgan, bosh qismi saqlanmagan erkak qohin tasviridagi terrakota haykalcha bo'lib, unda shaxs ikkala qo'li bilan ko'krak qismida muqaddas kitobni ushlab turgan holda ifodalangan. Haykalcha kiyimining umumiy shakli - belidan bog'langan kalta kamzul - diniy marosimlarda xizmat qiluvchi shaxs libosini eslatadi. Mazkur tafsilot, topilmaning ritual (marosimiy) xarakterga ega bo'lgan diniy tasviriy san'at namunasi ekanini ko'rsatadi.

Terrakota qolip yordamida yasalgan bo'lib, uning saqlangan bo'yi taxminan 10 sm, qalinligi esa 2-2,5 sm atrofida. Ayrim qismlarining, xususan bosh va oyoq kiyimining, saqlanmaganligi sababli haykalchaning to'liq ikonografik rekonstruksiyasini aniqlash imkoniyati cheklangan. Biroq mavjud holatda ham haykalchaning qo'l holati, kiyim qatlamlari va plastika uslubi asosida uni Xumbuztepa va Qal'aliqir madaniy qatlamlariga mansub deb baholash mumkin. Tadqiqotchini fikriga ko'ra, ushbu topilma diniy mazmunga ega bo'lib, muqaddas matnni tutgan qohin obrazining moddiy ifodasidir. Haykalcha keyinchalik "Avesto" muzeyi fondiga topshirilgan bo'lib, bu esa uni Zardushtiylik diniy an'analari va Xorazm vohasidagi ruhoniylar tizimi bilan bog'liq ikonografik dalil sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur topilma nafaqat o'zining tasviriy aniqligi, balki ma'naviy ramziyati bilan ham qadimgi Xorazm aholisi e'tiqod tizimida muqaddas so'z va yozma manbaga sig'inish an'anasi mavjud bo'lganligini tasdiqlovchi muhim arxeologik dalillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilingan arxeologik materiallar shuni ko'rsatadiki, Amudaryoning o'ng va so'l sohillarida joylashgan qadimgi madaniy-xo'jalik markazlarida haykaltaroshlik san'ati yagona uslubiy yo'nalishda shakllangan va izchil rivojlangan. Topilmalar orasidagi tipologik o'xshashliklar, ularning kelib chiqqan joyidan qat'i nazar, bu madaniy birlikning keng hududiy miqyosda amal qilganini isbotlaydi.

O'rganilgan manbalar tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

- Terrakotalarning hajmi va shakli. Topilgan haykalchalarning deyarli barchasi balandligi o'rtacha 10 sm bo'lib, shaklan yassi (yapaloq) va shartli ifoda uslubida yasalgan.

- Detallarga e'tibor. Ularning badiiy ishlanishida kiyim bezaklari, qaddi-qomatning mutanosibli va gestikulyatsion tafsilotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu

hol qadimgi ustalarning inson anatomiya va estetik proporsiyalarni yaxshi bilganini ko'rsatadi.

- Ayol terrakotalarning ustuvorligi. Ayollar tasviri ko'pincha yarim ustun shaklida, uzun va silliq libosda, o'ng qo'li ko'kragida, chap qo'li qorin sohasida tasvirlangan holda namoyon bo'ladi. Bu turdagi holat diniy yoki marosimiy timsol sifatida shakllangan ikonografik andozaning mavjudligidan dalolat beradi.

- Madaniy-diniy mazmun. Ayol haykalchalarining ko'pligi qadimgi Xorazm jamiyatida ayol zoti e'tiqodiy va ijtimoiy jihatdan ulug'langanligini, ularning obrazi ona-xudo kulti yoki hosildorlik ma'budasi tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganini anglatadi.

- Erkak terrakotalarning xususiyati. Erkaklar haykalchalari nisbatan kam uchraydi. Ular odatda uchburchak yoqali, belidan bog'langan kalta kamzul kiygan holatda ifodalangan bo'lib, bu obrazlar marosimiy yoki diniy xizmat vakillariga oid bo'lishi mumkin.

- Uslubiy ildizlar. S.P.Tolstov ta'kidlaganidek, bu haykaltaroshlik an'analari "devorlari ichida aholi yashaydigan shaharlar" davriga - miloddan avvalgi VI-V asrlarga borib taqaladi. Antik davrda mazkur uslub yanada takomillashib, yangi eraning dastlabki asrlarida realistik va hajmli tasvirlar paydo bo'lgan.

- Ko'p turlilik va texnika. Odamlar va hayvonlarning tasvirlari nafaqat qolip yordamida yasalgan terrakotalarda, balki kulolchilik idishlarining sirtida bo'rtma uslubda ham ishlangan. Bu hol san'atning kundalik hayot buyumlari bilan uyg'unlashganini va maishiy estetikaning rivojlanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ushbu arxeologik manbalar Xorazm vohasida qadimdan shakllangan yagona badiiy an'alar tizimini ochib beradi. Bu an'ana nafaqat estetik qadriyat sifatida, balki mahalliy e'tiqod, diniy ramziylik va madaniy tafakkurning moddiy ifodasi sifatida ham tarixiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududida kulolchilik san'ati qadimdan rivojlanib, xalq amaliy san'atining eng qadimiy va sarmazmun turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu san'at turi asrlar davomida nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki xalqning badiiy didi, estetik qarashlari va milliy qadriyatlarining ifodasi sifatida shakllangan. Shu jihatdan, mayda plastika deb ataluvchi kulolchilik yo'nalishi o'zining soddaligi, obrazlilik darajasi va dekorativ xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar dunyosiga eng yaqin badiiy shakl hisoblanadi. Demak, kulolchilikning mayda plastika yo'nalishi o'zining estetik, tarbiyaviy va madaniy ahamiyati bilan maktabgacha ta'lim tizimida badiiy ijodiy faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida katta imkoniyatlarga ega. Ushbu yo'nalishni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali bolalarda milliy san'atga hurmat, go'zallikni idrok etish, hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Xulosa o'rnida zamonaviy davrda terrakota plastikasining qadimiy an'analari maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Kulolchilik mashg'ulotlari orqali bolalar milliy qadriyatlarni anglash, ijodkorlikni rivojlantirish, mehnatga hurmat bilan qarash kabi fazilatlarni egallaydilar. Shu jihatdan, terrakota san'ati nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki milliy o'zlikni anglash va estetik tarbiyaning samarali vositasi sifatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiyeu, B., & Usmonova, Y. (2025). NATYURMORT JANRINING RIVOJLANISH TARIXI VA BOSQICHLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 196-200.
2. O'G'Li, B. A. A., & Anvarova, X. I. Q. (2025). Ranglarning xususiyatlari va insonlarga ta'siri. Science and Education, 6(6), 753-757.
3. O'G'Li, B. A. A. (2021). Talabalarda kompozitsiya tuzish va tasvirlash mahoratlarini takomillashtirishda shakllarni masofada ko'rish texnologiyalarini rivojlantirish. Science and Education, 2(9), 333-343.
4. Nabiyeu, B. A. O. (2025). The importance of using interactive methods in developing the creative competence of primary school students. Science and Education, 6(10), 461-465.
5. Komoldinov, S., & Ubaydullayeva, M. (2025). O'RAL TANSIQBOYEV IJODIDA O'ZBEKISTON TABIATINING IFODA ETILISHI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 268-272.
6. Abdirasilov, S., & Komoldinov, S. (2025). QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 24-28.
7. Jomoldin o'g'li, K. S. SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT.
8. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BOLALARINI DEKORATIV RASM CHIZISHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI. IMRAS, 8(6), 142-147.
9. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). NATYURMORT TUZISH VA UNTASVIRLASH USULLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 75-80.
10. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(31), 222-225.
11. Sattarov, F., & Ashanova, G. (2025). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK RASM CHIZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 145-149.

12. Sattarov, F., & Abdulaxatova, F. (2025). KUNDALIK HAYOT MAVZULARDAGI DASTGOHLI RANGTASVIRIGA OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 141-144.
13. Sattarov, F. (2025). ZAMONAVIY BINOLARDA INTERER DIZAYN QISMIDA ZAMONAVIY TASVIRIY SAN'AT. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 15-18.
14. Islomovich, S. F. (2023). RANGTASVIRDA MANZARA JANRINING O'ZIGA XOS TOMONLARI. EDUCATION, 2(16), 269.
15. Болтабоев, А. (2023). Приемы выполнения черновиков в процессе обучения студентов на занятиях изобразительного искусства. Общество и инновации, 4(4/S), 209-213.
16. Xasanboy o'g'li, B. A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN, 2545-0573.
17. Xasanboy O'g'li, B. A. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnologiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-namdu ilmiy Axborotnomasi-2023-yil_7-son.
18. Raximov, H., & Abdullayeva, S. (2025). 5-SINF O 'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA NATYURMORT ISHLASHNI O 'RGATISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 191-195.
19. Raximov, H., & Abdinabiyeva, M. (2025). O 'QUVCHILARGA KULOLCHILIK SAN'ATINI O 'RGATISHNING NAZARIY MASALALARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 219-223.
20. Raximov, H. (2025). O 'QUVCHILARGA MANZARA JANRINI O 'RGATISHDA INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O 'RNI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 214-218.
21. Umarjon o'g'li, H. R. (2021). Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 765-767.
22. Рахимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САНЪАТШУНОСЛИК СОҲАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).
23. Abdullayev, O. E. (2021). The impact of historical monuments on human spirituality. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 263-268.

24. Shokirjonovna, S. G., & Ergashevich, A. O. (2024). THE TECHNOLOGY OF CREATING A THEMATIC COMPOSITION: INTERPRETING COMPOSITIONAL ISSUES IN PAINTINGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 12-14.

25. Ibrokhimjonovna, K. I., & Ergashevich, A. O. (2024). EXPLORING THE SCIENTIFIC CHANGE OF COLOR RELATIONSHIPS IN THE LANDSCAPE GENRE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 18-21.

26. Abdullayev, O. E. (2021). Establishment and development of Uzbek theater. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 434-440.

27. Badriddinovich, O. B. (2024). TASVIRIY SAN'AT RIVOJIDA UYG'ONISH DAVRI AHAMIYATI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7, 6-10.

28. Suyarov, N. T., & Erkaev, E. T. (2021). IMPLEMENTATION OF NATIONAL-REGIONAL COMPONENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(08), 117-121.

29. Suyarov, N. T. (2021). Implementation of the national-regional component in the educational process. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 511-514.

30. Suyarov, N. (2019). TIPS AND METHODS OF USING NATIONAL FOLKLORE IN APPLIED ART LESSONS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 321-325.